



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGINING YANGI SHAKLLARI VA TURLARINI TASHKIL ETISH

Umarova Gulandom Tumanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-1752-1166

gulandom.u1983@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsiyalarni iqtisodiyotda qo'llashning xorij va o'zbek olimlari talqinlari tahlil qilingan. Innovatsion iqtisodiyot xususiyatlari, davlatlar milliy iqtisodiyotining innovatsionlik darajasini aniqlash ko'rsatkichlari, innovatsiyalar, iqtisodiy o'sish va bandlik o'rtasida yuqori darajadagi izchil bog'lanish yoritilgan. Axborot kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq ish bilan bandlikning innovatsion shakllari kengayishi jumladan, Ye-bandlikning rivojlanishi, virtual ish joylari, frilansing kabi bandlik turlari haqida ma'lumotlar berilgan. An'anaviy va virtual ish joylarining xususiyatlari aniqlanib, qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, innovatsiya, innovatsion iqtisodiyot, ishlab chiqarish, mehnat bozori, iqtisodiyot tarmoqlari, xizmatlar, texnologiya, texnologik taraqqiyot, virtualizatsiya, internetda ish bilan bandlik.

ОРГАНИЗАЦИЯ НОВЫХ ФОРМ И ВИДОВ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Умарова Гуландом Тумановна

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье проанализированы трактовки применения инноваций в экономике зарубежными и узбекскими учеными. Рассмотрены особенности инновационной экономики, показатели определения уровня инновационности национальных экономик, а также высокая степень последовательной взаимосвязи между инновациями, экономическим ростом и занятостью. Обсуждается расширение инновационных форм занятости, связанных с развитием информационно-коммуникационных технологий, включая развитие электронной занятости, виртуальные рабочие места и фриланс. Определены и сравнительно проанализированы особенности традиционных и виртуальных рабочих мест.

Ключевые слова: экономика, инновации, инновационная экономика, производство, рынок труда, услуги, технология, технологический прогресс, виртуализация, трудоустройство в интернете.

INNOVATIVE ECONOMY CONDITIONS FOR ORGANIZING NEW FORMS AND TYPES OF EMPLOYMENT

Umarova Gulandom Tumanovna
Tashkent State University of Economics

Annotation. *The article analyzes the interpretations of foreign and Uzbek scholars regarding the application of innovations in the economy. It explores the characteristics of an innovative economy, indicators for determining the level of innovation within national economies, and the high degree of consistency between innovations, economic growth, and employment. The article provides information on the expansion of innovative forms of employment related to the development of information and communication technologies, including the growth of e-employment, virtual workplaces, and freelancing. The features of traditional and virtual workplaces are identified and comparatively analyzed.*

Keywords: *economy, innovation, innovative economy, production, labor market, economic sectors, services, technology, information, technological development, virtualization, employment on the internet.*

Kirish.

Innovatsion iqtisodiyot innovatsiyalar va yuksak texnologiyalarga, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishga asoslangan iqtisodiyotdir. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ilmfanga asoslangan texnologiyalarning ommaviy joriy etilishi, mehnatni tashkil etish, aholi bandligi shaklining o‘zgarishiga, mehnat bozorida yangi tendensiyalar paydo bo‘lishiga olib keluvchi yangi shakllarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. U ikki tomonlama talqin qilinadi. Birinchidan, rivojlanishning yuqori darajada industrlashgan, iqtisodiy darajasi sifatida qo‘llanilib, unda iqtisodiyotning an’anaviy sektori butun tizimga tubdan boshqacha sifat baxsh etadigan yangi unsurlar bilan chirmashib ketadi. Ikkinchidan, tor ma’noda bu hozirgi zamon iqtisodiyotida yuz berayotgan yangi o‘zgarishlarni tavsiflaydigan iboradir.

Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi bandlik munosabatlari tadqiqotini uning tarkibi, kasb-malaka tavsifi, mehnatning xususiyatlari va mazmuni nuqtai nazaridan dolzarb qilib qo‘yadi.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsion iqtisodiyot nazariyasi avstriyalik iqtisodchi Yozef Shumpeter tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra innovatsiya bu – iste‘mol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va transport vositalari, yangi bozorlar va sanoatda tashkilotlar shakllarini joriy qilish va foydalanish maqsadidagi o‘zgarishlardir (Шымпереп, 2007). Tadqiqotchilar, E. Toffler, F. Fukuyama, D. Bell, J. Neysbit tomonidan «Aynan innovatsion texnologiyalarga tayangan davlatgina yuksak taraqqiyot darajasiga erishishi mumkin», degan fikr ilgari surilgan. Ko‘plab, klassik va zamonaviy iqtisodchi olimlar tomonidan esa innovatsiya tushunchasiga bir qancha ta’riflar berilgan. Jumladan, ingliz professori Spenser (2000) innovatsiya – bu aniq vaziyatda mutlaqo yangi narsa, biz buni anglaganimizda foydalanishimiz mumkin deb aytib o‘tgan o‘zining “Innovatsiyalarni davlat tomonidan tartibga solish nazariyasi va mexanizmi” nomli asarida. Rossiyalik olimlar Kulagin (2011) “Innovatsiya – bu innovatsion, ishlab chiqarish, institutsional moliyaviy, ilmiy-texnik va boshqa sohalardagi yangilikdir”, Balabanov (2001) “Innovatsiya-kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat, xizmat ko‘rsatish va boshqaruvning yangi shakllariga, jumladan, yangicha nazorat va hisob shakllari, rejalashtirish va tahlil usullariga kiritishdan olingan, moddiy tus olgan natijadir”, Kantorovich (1986) “Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko‘rsatish va uni muvaffaqiyatini ta’minlovchi yangilikdir” degan ta’riflarni bergan, Frimanning

(1987) fikricha milliy innovatsion tizim–jamiyat tomonidan iste'mol qilinadigan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishda, saqlashda, tarqatishda va yangi texnologiyalarga aylanishida qatnashadigan iqtisodiy subyektlar va ijtimoiy institutlarning (qadriyatlar, me'yorlar, huquqlarning) murakkab tizimi hisoblanadi.

Krayemerning (2010) fikriga ko'ra Innovatsiya – yangi mahsulot yoki xizmatni bozorga kiritish, yangi ishlab chiqarish jarayonlarini tatbiq etish, mahsulot yoki xizmatlar, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari yoki faoliyat turlarini ilgari surish, yangi bozorlarni tashkil etish yoki yangi jarayonning joriy bozor va mavjud bozorlarda katta ulushini qo'lga kiritishga qaratilgan sa'y-harakatlardir.

Mazkur tushuncha o'zbek olimlari tomonidan ham o'rganilgan jumladan, Shodimetov (2014) innovatsiyaga, innovatsiya bu moddiy ishlab chiqarish yoki sarmoya konsentratsiyasi emas deya ta'rif keltirgan. Tadqiqotchi G'affarov (2019) esa "Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatini ta'minlovchi yangilikdir", degan ta'rifni bergan. Yo'ldoshev (2004) "innovatsiya (ingliz tilidan olingan "Innovatsion" yangilik kiritish) — tizim ichki tuzilishni o'zgartirish amaliyot va nazariyaning asosiy qismi", innovatsion faoliyat esa, "yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilanayotgan me'yorlarni mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishiga qaratilgan faoliyat" deb ta'kidlaydi.

Topildiyev, Hasanovlar (2019) o'zining "Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modellari" nomli o'quv qo'llanmasida innovatsion iqtisodiyot tushunchasiga "Innovatsion iqtisodiyotda asosiy e'tibor yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, ilm talab texnologiyalar va inson faoliyatining turli sohalarini innovatsion tashkil etish, iqtisodiyotda innovatsion tizimni shakllantirish, kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlariga qaratiladi" degan fikrni keltirib o'tgan.

Bizningcha, aslida ham shunday sanoatlashgan iqtisodiyot o'rnini asta-sekin innovatsion iqtisodiyot egallashi oddiy haqiqat. Natijada, yangidan-yangi bozorlar kashf etiladi. Binobarin, innovatsion maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun, xususiylar investitsiyalarga imtiyozlar berish, zamonaviy banklarni shakllantirish, innovatsiyalarni kafolatlash hamda sug'urtalash, kichik va xususiylar biznesni qo'llab-quvvatlash, yirik texnologik loyihalar uchun milliy va xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish talab qilinadi. Natijada texnologik yangilanish hamda ishlab chiqarishga innovatsiyalarni jalb etish rivojlanib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni guruhlash, analiz va tizimli tahlil hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi. Bundan tashqari, monografik kuzatuv natijalari tahliliy o'rganilib, mehnat bozoridagi tanglikni innovatsion xizmatlar sohasini rivojlantirish hisobidan yumshatish mumkinligi ilmiy asoslandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yozef Shumpeterning (1911) "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" nomli asarida innovatsion iqtisodiyot konsepsiyasining beshta asosiy belgilari keltirib o'tilgan, ular quyidagilardir:

iste'mol uchun hali ma'lum bo'lmagan yangi tovarni, yoki tovarning yangi sifatini yaratish; sanoatning muayyan tarmog'ida hali sinab ko'rilmagan ishlab chiqarishning yangi usulini yaratish;

yangi bozorni ochish, ya'ni bu bozor avval mavjud bo'lmaganidan qat'i nazar, sanoatning mazkur tarmog'i unda savdo qilmagan bozorni ochish;

ishlab chiqarishning yangi manbasini, ushbu manba avval mavjud bo'lganligi yoki uni yangidan tashkil etishga to'g'ri keladigan qat'iy nazar kashf etish;

iqtisodiyot tarmog'ini yangicha tashkil etish, masalan monopoliyaga ega bo'lish yoki monopol mavqeyini yo'q qilish (Schumpeter, 1911).

Hozirgi vaqtda innovatsion iqtisodiyot deyilganda mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, mehnat unumdorligi darajasi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qo'shimcha qiymat, joriy etilgan yuqori texnologiyalar miqdori, oliy ta'limning samaradorligi, ilmiy xodimlar soni, patent faolligi va boshqa ko'rsatkichlar nazarda tutiladi. Uning xususiyatlariga intellektual, ijodkor, inson kapitali mutassil oshirib boriladigan, yuqori samarali, egiluvchan ish bilan bandlik xosdir.

Davlatlar milliy iqtisodiyotining innovatsionlik darajasi, Bloomberg Innovation Index ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. Unda tadqiqotlar va ishlanmalar faolligi ko'rsatkichi, ana shu maqsadga ajratilayotgan mablag'larning yalpi ichki mahsulot hajmidagi salmog'i, yuqori texnologiyalar sig'imi, mamlakatda aerokosmik, axborot va biotexnologiyalar, muqobil energetika sohasida ro'yxatga olingan korxonalar va ishlab chiqarish soni, oliy ta'lim samaradorligi bu tizimda o'qiyotgan talabalarning soni, shuningdek, ularning bitiruvchilari orasida muhandislik ixtisosligini egallaganlarning ulushi, patent faolligi, olingan patentlarning jahonda berilgan patentlardagi hissasiga qarab belgilanadi (Rustamov, 2019).

Aholining innovatsion ish bilan bandligini rivojlantirish jarayonlarida mehnat resurslarining tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi gender va boshqa ijtimoiy transformatsiyalar katta ahamiyatga ega, bu mehnat bozoriga oilali ayollar, keksa fuqarolar va talabalarning chiqishi bilan bog'liq. Buning oqibatida, mehnat bozoridagi taklif sohasida raqobat sezilarli darajada oshadi.

Mehnat bozoridagi tanglikni esa innovatsion xizmatlar sohasini rivojlantirish hisobidan yumshatish mumkin. Bunda, ishlab chiqarishda raqobatning kuchayishi va xizmatlar ko'rsatish sohasida talabning ortishi natijasida tobora ko'proq ishlab chiqaruvchilar xizmatlar ko'rsatish sohasiga jalb etiladi.

Yangi texnologiyalarning keng yoyilishi natijasida an'anaviy xizmat ko'rsatish, savdo, boshqarish sohasidagi faoliyat turlari, ta'lim, san'at, huquqshunoslik, kommunikatsiyalar tarmoqlarida ish bilan bandlikning shakllari tubdan o'zgarib bormoqda. Industrial jamiyatdan yangi, innovatsion iqtisodiyotga o'tish kuzatilmoqda. Ushbu o'zgarishlar umumiy tarzda tez va muttasil yangilanib borayotgan bilimlarni tobora kengroq joriy etish, texnikaviy-texnologik innovatsiyalardan foydalangan holda eskirib qolgan operatsiyalarni bajarishda shaxsning aqliy va ijodiy qobiliyatidan yuqori unum bilan foydalanishni taqozo etishi natijasida ishlab chiqarishda yaqin vaqtlargacha an'anaviy mehnat munosabatlari bilan bir qatorda mehnat munosabatlarining yangi, nostandart tizimi shakllandi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ish bilan innovatsion bandlikning ikki turini farqlash mumkin

1. *Ish bilan bandlikning axborot modeli.* Mazkur modelda ishlab chiqarishga xizmat sohasi va aholiga xizmat ish bilan innovatsion bandlikda asosiy o'rinni egallaydi. U asosan ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarda shakllangan. Xususan, AQSH va Kanadada ish bilan bandlar umumiy sonining 73 foizini, Buyuk Britaniyada 70 foizini (Суслина, 2013) tashkil etadi.

2. *Ish bilan bandlikning axborot-industrial modeli.* Ushbu model G'arbiy Yevropa davlatlari uchun xosdir. Ularda ish bilan bandlik darajasi sanoatning ishlov berish tarmoqlarida pasayib borayotgan bir vaqtda xizmat sohasida o'sish yuzaga kelmoqda. Ushbu yangi model axborot -kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqarish va jamiyatga joriy qilish ko'lamining kengayib borishini izohlaydi.

Innovatsiyalar, iqtisodiy o'sish va bandlik o'rtasida yuqori darajadagi izchillikni yuzaga keltiradi. Rivojlangan mamlakatlarda ish o'rinlarining 40-50 foizi innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot tufayli yo'q bo'lib ketgan yoki o'zgartirilgan (Люд Пэн, Белокрылова, 2022). Shu bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratish jarayoni jadal rivojlanmoqda, ba'zi an'anaviy bandlik va kasb-hunar sohasida ish o'rinlari soni kamaymoqda, boshqalarida esa o'sib bormoqda.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish ishning tashkil etilishi, tartibi va mazmunini o'zgartiradi, ishchilarni yangi texnologiyalar, usullar va ularning kombinatsiyalaridan foydalanishga majbur qiladi. Bundan ma'lumki, har bir texnologik inqilob iqtisodiy tuzilmani,

ishlab chiqarishni va turmush tarzini o'zgartirishni belgilaydi, bu esa mehnat bozorida va bandlik tarkibida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Qishloq xo'jaligini avtomatlashtirilishi mehnatni bo'shatish jarayonini rag'batlantiradi va qishloq xo'jaligida band bo'lganlar ulushini kamaytiradi. Sanoatlashtirilish esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarini integratsiyalashuviga yordam beradi, bu esa ushbu faoliyatda ish o'rinlarini qayta qurishga olib keladi.

Sanoat tuzilmasini modernizatsiya qilish yanada rivojlangan bandlik tuzilmasini shakllantirishni va past malakali ishchi kuchiga talabning pasayishini belgilaydi. Shu bilan birga, iste'mol imkoniyatlarini kengaytirib, shunga mos ravishda talabni oshiradi. Natijada, yangi kasblar va yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu orqali ko'proq yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Ishning yangi shakllariga o'tish natijasida ish beruvchi tashkilot yoki korxonalar faoliyat samaradorligiga ta'sir qiluvchi bir qancha imkoniyatlarni qo'lga kiritishi mumkin. Jumladan, ish joylarini va ularni ishlatish bilan bog'liq doimiy xarajatlarni qisqartirish, optimal joy va optimal vaqtda ishlash natijasida xodimlarning mehnat unumdorligi oshirilishi, mahsulot va xizmatlarni iste'molchiga taqdim etish chegaralarining kengayishi hamda mijozga yaqinlashtirilishi kabilar.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning ko'plab ijobiy jihatlari bilan bir qatorda bandlik nuqtai nazaridan salbiy tomonlari ham mavjuddir. Bular kelajakda ko'plab sohalarda to'liq avtomatlashtirilishi va aqlli bo'lishi natijasida, texnologik taraqqiyot ko'p sonli ofis ishlari, jumladan, kam maoshli, past malakali ish o'rinlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va robotlashtirish hisobiga qisqa va o'rta muddatli ishsizlikning yuzaga kelishi ya'ni innovatsiya ba'zi hollarda bandlikka qarama-qarshi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1970-yillardagi axborot inqilobi jamiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va inson hayotida ko'p sohalarni o'zgartirdi.

Yangi postindustrial jamiyatga, bilimlar iqtisodiyotiga, global dunyoga va axborotlashtirishga o'tish, jismoniy mehnat ulushi va xizmatlar rolining oshishi, avtonomlashtirish, standartlashtirish, mehnat munosabatlarini virtualizatsiya qilish kabi xususiyatlar bilan ajralib turadigan deviant bandlik modellarining paydo bo'lishi va o'sishiga olib keldi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq ish bilan bandlikning innovatsion shakllari kengayishi jumladan, Ye-bandlikning rivojlanishi, ya'ni virtual ish joylari, frilansing kabilar tobora ommalashdi.

Virtual ish joyi (virtual offices) – bu xodimlar kompyuter tarmog'i yordamida turli joylardan birgalikda ishlashi mumkin bo'lgan virtual ish muhitidir.

Frilansing ish turi bu frilans ("freelanc" – "erkin yollash") pudrat asosida aniq bir ishni bajarishga yo'naltirilgan mustaqil ish bilan bandlik sanaladi. Bandlikning ushbu turida frilanser mehnat faoliyatini amalga oshirishda mijozni o'zi topadi. Belgilangan ishni bajargach amalda bajarilgan ish uchun ish haqi oladi.

Globalashuv, mehnat bozorini axborot bilan ta'minlash, integratsiya jarayonlari, xodimlar mobilligi oshishi va sifat jihatidan yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi ish o'rinlari uchun ishchi kuchi hamda ish beruvchilar o'rtasida raqobatning kuchayishi, natijada, mehnat vazifalarining taqsimlanishi yuzaga kelmoqda. Shuningdek, an'anaviy ish joyi xususiyatlarida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y berayotganligini ko'rish mumkin (1-jadval).

Internet texnologiyalarini faol takomillashtirish va tarqatish natijasida global ijtimoiy-iqtisodiy tarmoq va jamiyatning mutlaqo yangi virtual tashkiliy va faoliyat elementlari shakllandi. Hozirda virtual bandlik Internetda bandlik sifatida faol rivojlanmoqda. Mehnat munosabatlarining ushbu shakli turli xil usullar bilan birlashtirilishi Internetda mehnat faoliyatini amalga oshirish usuli sifatida tavsiflanishi mumkin. Internetda bandlik doimiy, ochiq va rasmiy ro'yxatga olingan, ammo tadqiqotlarga ko'ra, bu kamroq tarqalgan

1-jadval

An'anaviy va virtual ish joylarining xususiyatlari (Abduraxmonov, 2019)

Xususiyatlar	An'anaviy ish joylari	Virtual ish joylari
Vaqt	Barcha xodimlar uchun bir xil ish vaqtiga amal qilinishi, masalan soat 09:00dan 17:00 gacha	Xodim uchun eng maqbul payt
Joylashish	Korxonada, tashkilot yoki idora muassasasida	Xodim uchun eng maqbul joyda
Muddat	Asosan uzoq muddatli	Ko'pincha qisqa muddatli, shartnomada belgilangandek
Ish beruvchi	Bitta	Bir nechta
Mehnatga haq to'lash	Vaqtbay va soatbay	Soatbay

Internetda bandlik — bu postindustrial (yoki axborot) jamiyat davrida bandlikning normal rivojlanishi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, boshqa har qanday mehnat faoliyati singari, onlayn bandlik ham bir qator turli xil xavflarni (ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik, tibbiy) o'z ichiga oladi va barcha ishchilar ham ularga to'liq duch kelmaydi. Bundan tashqari, ishchilarning o'zlari ham, davlat ham qulayroq mehnat sharoitlarini yaratish orqali yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga intiladi. Shu bilan birga, virtual muhitda ishlash mutaxassisning tashkilotga qo'shadigan shaxsiy hissi darajasini va o'z faoliyati sifatini oshiradi, shaxsning kasbiy o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, aholining ayrim qatlamlari uchun yangi ish joylarini yaratadi, deyish mumkin.

Ilmiy-texnika taraqqiyotidan foydalanish yangi kompaniyalar, tovarlar va xizmatlar bilan yangi bozorlarni yaratishga olib keladi, bu esa bandlikka bevosita ta'sir qiladi. Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi, bir tomondan, ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratadi (masalan, Wildberries xalqaro internet-do'konida 20 ming xodim ishlaydi). Boshqa tomondan, bu an'anaviy faoliyatda band bo'lganlar sonining kamayishiga olib keladi, ya'ni evolyutsion-sanitizatsiya funksiyasini bajaradi.

Xulosa va takliflar.

Ish bilan innovatsion bandlik mavjud innovatsion va investitsiya muhiti, ish joylari tizimining holati, ishlab chiqarish jarayonining tashkil etilishi kabi omillarni qamrab oladi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, yer yuzi aholisining keskin tarzda oshishi, u bilan bog'liq holda ish bilan bandlik darajasini oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini ish bilan ta'minlash kabi radikal o'zgarishlar, innovatsiyalarni keng joriy etishni odatiy holatga aylantirmoqda. Bandlikni samarali tashkil etish, ishlab chiqarishni takomillashtirish, ishchi kuchi sifati va sharoitini yaxshilash jarayonlari innovatsion loyihalarni tatbiq etish orqali samara beradi.

Adabiyotlar/ Lumebamypa/ Reference:

- Abduraxmonov Q. (2019) *Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. Darslik. T.: 592 b.*
- Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae (2010) "Innovation and the Development Agenda". *International Development Research Centre Canada p. 9.*
- Freeman C. (1987) *Technology Policy and Economic Performance. L.: PrinterPublishers p 57*
- G'afarov E. (2019) *Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy-nazariy yondashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. №10, 153-157 b.*
- Rustamov E. (2019) *Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari. T:2019*
- Schumpeter J.A. (1911) *Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung.*
- Shodimetov 3.K. (2014) *Muqobil energiya manbalaridan foydalanish va uning iqtisodiy istiqbollari. T.: 14 bet*
- Topildiyev S.R., Hasanov R.R. (2019) *Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion*

modellari. O'quv qo'llanma. T.: 206 b.

Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. (2004) Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma.-T.: 104 b.

Балабанов И. (2001) Инновационный менеджмент. Питер, стр. 303

Канторович Л. (1986) Системный анализ и некоторые проблемы научно-технического прогресса. М.:Наука.

Кулагин А. (2011) Оценка и самооценка научной организации. Инновационная экономика. Стр. 54-55

Лю Пэн, Белокрылова О.С. (2022) Перспективы занятости в условиях перехода к Индустрии 4.0 (на примере Китая) // Социальные новации и социальные науки : [электронный журнал]. № 1 стр. 140–147.

Спенсер В.Р. (2000) Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебное пособие

Суслина С.С. (2013) Экономика Республики Корея: новые перспективы и вызовы. Проблемы Дальнего востока. №3. Стр. 66-78

Шумпетер Й. (2007) Теория экономического развития. М.: 2007.